

**AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGYALARIDAN FOYDALANIB  
INGLIZ TILINI O`QITISH AFZALLIKLARI.**

*Toshboltayev Faxriddin O`riboyevich*

*Farg`ona davlat universiteti Axborot  
texnologiyalari kafedrasini katta o`qituvchisi  
( PhD )*

*A`zamjonova Saboxat Vohidjon qizi*

*Farg`ona davlat universiteti  
Chet tillari fakulteti 1-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ta`lim tizimining muhim bir qismi hisoblangan axborot- kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish orqali ingliz tilini darslarini tashkil etish haqida so`z boradi.Dastlab axborot- kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning afzalliklari yoritiladi. Keyinchalik, AKT vositalari yordamida darslarni interaktiv va qiziqarli tashkil etish,o`quvchilarni til o`rganishga bo`lgan ishtiyoqini oshirish haqida so`z boradi. Maqolada dars jarayonlarida Quizlet,Kahoot,Duolingo,Bamboozled,shuningdek, My Test X, EasyQuizy platformalarining til o`rganuvchilar uchun qulayliklari tahlil qilinadi

**Kalit so`zlar:** ingliz tili, axborot- kommunikatsiya texnologiyalari , ta`lim samaradorligi , interaktiv ta`lim,Quizlet,Kahoot,Duolingo,My Test X,Easy Quizy

**Annotation:** This article discusses the organization of English language lessons through the use of information and communication technologies, which are considered an essential part of the education system. Initially, the advantages of using information and communication technologies (ICT) are highlighted. Furthermore, the article focuses on how ICT tools help make lessons more interactive and engaging, thereby increasing students' motivation to learn the language. The article also analyzes the benefits of using platforms such as Quizlet, Kahoot, Duolingo, Bamboozled, as well as My Test X and EasyQuizy in the language learning process.

**Keywords:** English language, information and communication technologies, educational effectiveness, interactive learning, Quizlet, Kahoot, Duolingo, My Test X, Easy Quizy

**Аннотация:** В данной статье рассматривается организация уроков английского языка с использованием информационно-коммуникационных технологий, которые являются важной частью системы образования. Сначала освещаются преимущества использования ИКТ. Далее речь идет об организации интерактивных и увлекательных уроков с помощью средств ИКТ, а также об увеличении интереса учащихся к изучению языка. В статье анализируются

удобства таких платформ, как Quizlet, Kahoot, Duolingo, Bamboozled, а также My Test X и EasyQuizy, для изучающих языки.

**Ключевые слова:** английский язык, информационно-коммуникационные технологии, эффективность обучения, интерактивное обучение, Quizlet, Kahoot, Duolingo, My Test X, Easy Quizy.

Hozirgi globallashuv jarayonida xorijiy tillarni asosan, ingliz tilini o`qitish ta`lim tizimimizning ustuvor yo`nalishlaridan biriga aylangan. Ingliz tili nafaqat xalqaro aloqa balki ilmiy texnologik axborotlar bilan tanishish vositasi sifatida dunyo miqiyosida muhim ahamyatga ega bo`lib kelmoqda. Shu bois ingliz tili o`qitish metodikalarini yangilash uni zamonaviy texnologyalar va usullar bilan boyitish eng asosiy masalalardan biridir .Axborot- kommunikatsiya texnologyalar vositalari – kompyuterlar, internet resurslari , talimiylar – til o`rganish jarayonini jonlantirib, uni interaktiv va individual yondashuvlarga asoslangan holatga olib keladi.Ushbu maqola ingliz tilini o`qitishda axborot-kommunikatsiya texnologyalardan foydalanishning afzalliklarini o`rganishga va bu o`quvchilarining natijalariga qanday ta`sir qilishini tahlil qilishga qaratilgan.

Tadqiqot jarayonlarida asosan sifatli metodlar qo`llash uchun o`rganish obyekti sifatida o`rta va oliy o`quv yurtlari `o`qituvchi va o`quvchilarini tanlash eng muhim ishlardan biri. Dars vaqtida asosiy e`tibor foydalanilayotgan vositalarni masalan multimedia taqdimotlari, ta`limiy dasturlar , virtual lug`atlar , til ilovalaridan foydalanishga va bu bo`yicha ishtirokchilarning fikr-mulohazalarini o`rganishga qaratish kerak. Shuningdek , multimedia vositalari orqali o`quvchining ingliz tili o`rganishida videodarslar, audio fayllar, animatsiyalar va interaktive taqdimotlar talaffuz ,grammatik qoidalar va so`z boyligini tushunishni osonlashtiradi ya`ni vizual va audio vositalar yordamida axborot o`rganuvchining xotirasida yaxshiroq qabul qilinadi va esda saqlanadi.Bundan tashqari AKT orqali yaratilgan online platformalar, masalan, Quizlet, Kahoot, Duolingo, Bamboozled kabilarda o`quvchi o`z bilimlarini testlar, o`yinlar, topshiriqlar orqali mustahkamlash imkoniyatiga ega bo`ladi. Quyida ularning har biri tahlil qilinadi.\

### **Quizlet**

Bu platformaning fleshkart (flashcard) tizimi so`zlar yod olish uchun samarali hisoblanadi.Til o`rganuvchilar inglizcha so`zlar va ularning tarjimasini vizual va interaktiv tarzda o`rganishlari mumkin. Quizlet ( speed repetition) tehnikasi ma`lumotni uzoq muddat xotirada saqlashga yordam beradi,Match , Gravity kabi o`yin shaklidagi mashqlar o`quv jarayonida talabalarni faollashtiradi.

### **Kahoot**

Bu asosan o`quv jarayonini interaktiv o`yinlar orqali tashkil etishga qaratilgan platforma bo`lib u test viktorina so`rovnama va turli xil o`yinlar shaklida ingliz tili

darslarini qiziqarli va faol tarzda o`tkazishga yordam beradi. Talabalar \Kahoot o`yinlari orqali bir- biri bilan tilda muloqot qilishadi, fikr almashishadi bu esa ularning til ko`nikmalaranini shakllantiradi

### **Duolingo**

Bu bepul onlayn til o`rganish platformasi hisoblanadi va u foydalanuvchilari uchun ko`plab tillar:ingliz tili , fransuz tili nemis tili koreys tili kabilarni o`rganish imkonini beradi. Uning premium versiyasi ham mavjud ammo barcha funksyalarini va til o`rganish uchun muhim bo`lgan darslar bepul taqdim etilgan.

### **Bamboozled**

Bu ingliz tilini o`rganuvchilar va o`qtuvchilar uchun interaktiv o`yinlar yaratishda yordam berishga mo`ljallangan no`ljallangan bepul onlayn platforma. Asosan o`qituvchilar bunda dars mavzusiga oid bo`lgan test viktorinalarni guruhli yoki individual tarzda rasm ,multimedia, matn bilan boyitib yaratishi mumkin. “Classic”, “Quiz” , “Memory”, “Study” kabi o`yinlari talabalarning ingliz tilidagi yangi so`zlarni yodlash, tezkorlik bilan javob berish, fikrlashni rivojlantiradi.

O`qituvchilar uchun ham AKT dan foydalangan holda My TEST X, EasyQuizy platformalarida ingliz tili darslariga bo`qliq bo`lgan testlar tuzish o`quvchilarning bilim darajalarini aniqlashning eng qulay bo`lgan usullaridan biri.

### **My Test X**

Dastur ingliz tili o`qituvchilariga talabalarining( Intermediate,Advanced) bilim darajalarini turli testlar orqali batafsil aniqlash imkonini beradi.Shuningdek

Testlarni ingliz tili grammatikasi ,lug`atlar(vocabulary),`oqish(reading),tinlab tushunish (listening) kabilar bo`yicha tuzish mumkin.

### **EasyQuizy**

Test tuzish va o`tkazish uchun mo`ljallangan platforma hisoblanib unda testlar ingliz tilida o`rganilgan grammatik qoidalar matnlar asosida tuzilishi savol turlari bir nechta javobdan birini tanlash ,to`g`ri yoki noto`g`ri,ochiq javobli kabi tanlanishi mumkin.Dasturda test tugagach o`qituvchi talabaning ingliz tilidan bilim darajasini oson usulda ko`ra oladi.

Yangi metodlar - videolar ,o`yinlar raqamli hikoyalar, xususan, AKT vositalari ta`sirida o`quvchilarning darslarga ko`proq qizish bildirishi, ingliz tilida tinglab tushunish, gapirish salohiyatlarini rivojlantirishi kabi natijalarni olish mumkin . Shu bilan birga ularning ingliz tilida tashkil etilgan onlayn testlar va raqamli platformalarda, guruh loyihalarida faol ishtirok etishi til o`rganish jarayonini yanada tezlashtiradi. Ingliz tili o`qitishda AKTdan foydalanish ta`lim jarayonini o`qituvchiga yo`naltirilgan yondashuvdan o`quvchiga yo`naltirilgan ta`limga o`zgartiradi.Bu o`z navbatida o`quvchilarda mustaqillik, ijodkorlik va hamkorlikda ishlash ko`nikmalarini rivojlantiradi. Shuningdek, metodlardan foydalanish davomida ayrim kamchiliklar , masalan ,texnik vositalar yetishmasligi, yoki ulardan foydalanish ko`nikmasi

yeterlicha emasligi kabi kamchiliklar ham yuzaga kelishi mumkin. Shunga qaramay , AKTdan to`gri va maqsadli foydalanilsa , bu ingliz tilini samarali o`rgatishda kuchli vosita bo`lib xizmat qiladi.

**Foydalaniman adabiyotlar:**

1. Quizlet. (2024). Learn with flashcards. <https://quizlet.com>
2. Kahoot! (2024). Game-based learning platform. <https://kahoot.com>
3. Duolingo. (2024). Free language learning. <https://www.duolingo.com>
4. Baamboozle. (2024). Games for learning. <https://www.baamboozle.com>
5. EasyQuizzy. (2024). Create and run tests easily. <https://easyquizzy.com>
6. MyTestX dasturi haqida umumiy ma'lumot. (2023). O'qituvchilar uchun test dasturi [Kompyuter dasturi].
7. Karimov, M. (2022). Axborot-kommunikatsiya
8. Tursunova, N. (2023). Zamonaviy dars jarayonida AKTdan foydalanish usullari.

Farg‘ona: